

YURIDIK FANLAR AXBOROTNOMASI

ВЕСТНИК ЮРИДИЧЕСКИХ НАУК

REVIEW OF LAW SCIENCES



huquqiy ilmiy-amaliy jurnal

правовой научно-практический журнал

legal scientific-practical journal

2023-yil 4-son

VOLUME 7 / ISSUE 4 / 2023

DOI: 10.51788/TSUL.ROLS.2023.7.4.

ISSN 2181-919X

E-ISSN 2181-1148

DOI: 10.51788/TSUL.ROLS



Crossref
Content
Registration

MUNDARIJA

12.00.01 – DAVLAT VA HUQUQ NAZARIYASI VA TARIXI. HUQUQIY TA'LIMOTLAR TARIXI

- 5 **AXMEDSHAYEVA MAVLYUDA AXATOVNA**
Hokimiyatlar bo'linishi nazariyasi va uning
shakllanishiga doir ayrim nazariy masalalar

12.00.02 – KONSTITUTSIYAVIY HUQUQ. MA'MURIY HUQUQ. MOLIYA VA BOJXONA HUQUQI

- 17 **ТУЛЬТЕЕВ ИЛЬЯС ТАВАСОВИЧ**
Послание Президента страны к народу и
Олий Мажлису: конституционно-правовой
анализ
- 26 **YAKUBOV SHUXRAT UMMATALIYEVICH**
Oliy ta'lim transformatsiyasi: YUNESKOning
"Oliy ta'limga oid malakalarni tan olish
to'g'risida"gi Global konvensiyasini ratifikatsiya
qilish zarurati
- 35 **АЛИМУХАМЕДОВ СУХРОБ
АЙБЕКОВИЧ**
Децентрализация системы государственного
управления в унитарных и федеративных
государствах: сравнительно-правовой анализ
- 49 **YULDOSHBEKOV AVAZBEK
ALISHER O'G'LI**
Soliq maslahati tushunchasining nazariy-huquqiy
jihatleri

12.00.03 – FUQAROLIK HUQUQI. TADBIRKORLIK HUQUQI. OILA HUQUQI. XALQARO XUSUSIY HUQUQ

- 58 **ГУЛЯМОВ САИД САИДАХРАРОВИЧ
РУСТАМБЕКОВ ИСЛАМБЕК
РУСТАМБЕКОВИЧ**
Реформирование основ сравнительного
правоведения в цифровую эру: новые
принципы и подходы

- 85 **БАЛТАБАЕВА ЖИБЕК БАУЫРЖАНОВНА**
Улучшение системы взыскания алиментов
в Казахстане: проблемы и перспективы

- 94 **ГАФФОРОВ МЕХРАНГИЗ ШАВКАТОВИЧ**
Гражданско-правовые способы защиты
слабой стороны договора

12.00.08 – JINOYAT HUQUQI. HUQUQBUZARLIKLARNING OLDINI OLISH. KRIMINOLOGIYA. JINOYAT-IJROIYA HUQUQI

- 107 **CHORIYEV ANVAR QO'ZIYEVICH**
Qilmishning jinoiyligini istisno qiluvchi holatlar
shaxs huquq va erkinliklarini suddan tashqari
himoya qilish shakllari sifatida

12.00.09 – JINOYAT PROTSESSI. KRIMINALISTIKA, TEZKOR-QIDIRUV HUQUQ VA SUD EKSPERTIZASI

- 116 **MAXMADIYAROVA XUMORA O'KTAMOVNA**
Jinoyat ishini sudda ko'rish uchun tayyorlash
bosqichida taraflar tortishuvini ta'minlash

- 122 **OLIMOV BEKMIRZA TUXTAPULATOVICH**
Ekspertiza tayinlash va o'tkazishda shaxs
huquqlarini ta'minlash

12.00.10 – XALQARO HUQUQ

- 129 **БАЛЕЕВ АРТУР МАХМУДОВИЧ**
Правовое регулирование агентской
деятельности в Республике Узбекистан

13.00.02 – TA'LIM VA TARBIYA NAZARIYASI VA METODIKASI (SOHALAR BO'YICHA)

- 138 **GULYAMOVA GULNORA YAKUBOVNA**
TURABAYEVA LAZZAT KALIKULOVNA
Ta'limda innovatsion texnologiyalar

- 146 **НИЯЗОВА НАСИБА ЖУРАБЕКОВНА**
Правовое регулирование статуса языка и
особенности его использования в различных
источниках права

DOI: <https://dx.doi.org/10.51788/tsul.rols.2023.7.4./NLBC5593>
UDC: 343.12(045)(575.1)

JINOYAT ISHINI SUDDA KO'RISH UCHUN TAYYORLASH BOSQICHIDA TARAFLAR TORTISHUVINI TA'MINLASH

Maxmadiyarova Xumora O'ktamovna,
Jinoyat ishlari bo'yicha Toshkent shahar
Chilonzor tuman sudi sudyasi yordamchisi
ORCID: 0009-0006-3214-8183
e-mail: humoramahmadiyarova@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada jinoyat ishini sudda ko'rish uchun tayyorlash jarayonida taraflarning o'zaro tortishuvini kuchaytirish, uning muhim tarkibiy qismi bo'lgan taraflar protsessual imkoniyatlaridagi tengligini ta'minlash, shuningdek, haqiqatni aniqlash jarayonida sudning o'rnini aniqlash, uning dalillarni to'plash, tekshirish va baholash davrida faollik darajasini belgilash masalalari ayrim rivojlangan xorijiy mamlakatlar tajribasi hamda aynan shu masalada ilmiy tadqiqot ishlarini olib borgan protsessualist olimlarning ilmiy qarashlari asosida tahlildan o'tkazilgan. Shuningdek, dastlabki eshituv o'tkazish asoslarini yanada takomillashtirish, bunda ko'proq himoya tarafning protsessual imkoniyatlarini kengaytirish, qonunda ayblov xulosasi yoki dalolatnomasini tasdiqlaydigan prokurorga ishdagi kamchiliklarni to'g'rilashga imkoniyat berilishini tanqid qilish orqali mazkur tartibni takomillashtirish masalalari muhokama qilingan. Ishni sudda ko'rish uchun tayyorlash, unda taraflar tengligi va tortishuvini kuchaytirish bilan bog'liq ayrim muammoli masalalar atroflicha o'rganilib, ularni yangi tahrirda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga asosan bartaraf etish yuzasidan taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan. Ushbu taklif va tavsiyalar sud amaliyotini tartibga solishda, ishni sudda ko'rish uchun tayyorlash davriga oid qonunchilikni isloh qilishda muhim ahamiyatga ega.

Kalit so'zlar: tortishuv, haqiqatni aniqlash, sud, ayblov taraf, himoya taraf, isbotlash, tenglik.

ОБЕСПЕЧЕНИЕ СОСТЯЗАТЕЛЬНОСТИ СТОРОН НА ЭТАПЕ ПОДГОТОВКИ УГОЛОВНОГО ДЕЛА К РАССМОТРЕНИЮ В СУДЕ

Махмадиярова Хумора Уктамовна,
помощник судьи Чиланзарского районного
суда по уголовным делам г. Ташкента

Аннотация. В данной статье освещаются вопросы усиления взаимной аргументации сторон, обеспечения равенства процессуальных возможностей сторон в процессе подготовки уголовного дела к рассмотрению в суде, что является важной её составляющей, а также на основе опыта некоторых развитых зарубежных стран анализируются позиции суда в процессе установления истины, определение уровня его активности в период сбора, проверки и оценки доказательств. Анализ выполнялся в том числе на основе научных взглядов учёных-процессуалистов, проводивших научные исследования по данному вопросу. Кроме того, в статье рассматриваются вопросы совершенствования основ предварительного слушания, расширения процессуальных возможностей стороны защиты, подвергнут критике тот факт, что прокурору, утверждающему обвинительное заключение, предоставляется возможность исправлять недочёты в документах. Таким образом, тема научной статьи связана с подготовкой дела к

рассмотрению в суде, в ней подробно изучаются некоторые проблемные вопросы, связанные с равенством сторон и усилением спора, а также разрабатываются предложения и рекомендации по их устранению, исходя из вновь принятой Конституции Республики Узбекистан. Данные предложения и рекомендации важны для регулирования судебной практики и реформирования законодательства об этапе подготовки к судебному разбирательству.

Ключевые слова: спор, установление истины, суд, обвинение, защита, доказывание, равенство.

PROVISION OF THE PARTIES AT THE STAGE OF PREPARATION FOR CONSIDERATION OF A CRIMINAL CASE

Makhmadiyarova Khumora Uktamovna,
Assistant judge of the Chilanzor District
Court for Criminal Cases of Tashkent city

Abstract. In this article, in the process of preparing a criminal case for consideration in court, the issues of strengthening the mutual argumentation of the parties, ensuring equality of procedural capabilities of the parties, which is an important component, are considered, as well as determining the position of the court in the process of establishing the truth, determining the level of its activity during the collection period, verification, and evaluation of evidence. The analysis was carried out on the basis of the scientific views of procedural scientists who conducted scientific research on this issue. The article also discusses the issues of improving the basis of the preliminary hearing, expanding the procedural capabilities of the defense, and criticizing the fact that the prosecutor who approves the indictment or document is given the opportunity to correct shortcomings in the case. This scientific article is related to the preparation of the case for consideration in court, in which some problematic issues related to the equality of the parties and the strengthening of the dispute are studied in detail, as well as proposals and recommendations to eliminate them, based on the newly adopted Constitution of the Republic of Uzbekistan. These proposals and recommendations are important for regulating judicial practice and reforming legislation during the period of preparation for trial.

Keywords: dispute, establishing the truth, court, accusation, defense, proof, equality.

Kirish

Jinoyat ishlarini sudda ko'rishda tortishuv nisbatan zamonaviy va samarali ish yuritish shakli bo'lib, adolatli sud ishini yuritishga xizmat qiladi. Sud muhokamasi ishtirokchilari dalillar taqdim etgan holda o'z pozitsiyalarini asoslaydilar, sud esa ish holatlaridan kelib chiqib yakuniy qaror qabul qiladi. Sudning faoliyati bilan taraflarning haqiqatni aniqlashdagi faoliyatidagi muhim farq shundaki, taraflar dalillar taqdim etish orqali o'z vajlarini asoslab uni ishonitirishga harakat qilishsa, sud dalillarni tekshirish va baholash orqali o'z ichki ishonchiga tayangan holda harakat qiladi.

Jinoyat protsessida tortishuv ikki ma'noda: ish yuritishning protsessual shak-

li hamda prinsip sifatida o'rganiladi. Uning ahamiyati shundaki, tortishuv odil sudlovni ta'minlovchi, inson huquqlari ustuvorligini ko'rsatuvchi, taraflarning qonun va sud oldida tengligini belgilovchi muhim vosita sanaladi. Jinoyat protsessining tortishuvga asoslangan tuzilishi ish yurituvning turli subyektlari o'rtasidagi huquq, majburiyatlarning taqsimlanishida ko'rinadi. Sudda ish yuritish haqiqatda tortishuvga asoslanishi uchun taraflarning nafaqat faolligini kuchaytirish, balki ularning sud oldidagi tengligini ta'minlash kerak bo'ladi.

Jinoyat-protsessual huquqi nazariyasida tortishuvning asosiy uchta belgisi ajratiladi: uch asosiy funktsiya (ayblov, himoya va ishni hal etish)ning bir-biridan ajratilganligi;

sudning xolis va beg'araz ishtirokchi sifatida ayblov yoki himoya tarafida turmasdan ish olib borishi va uni hal etishi; sudning taraflar protsessual majburiyatlarini bajarishlari va huquqlarini amalga oshirishlari uchun zarur sharoitlar yaratib berishi. Mazkur qoidalar tomonlarning o'zaro tortishuvi asosida dalillarni har tomonlama va to'liq o'rganish imkonini oshiradi. Chunki taraflarning bu boradagi teng huquqliligidan ta'minlanishi dalillarning bir tomonlama o'rganilishining oldini oladi. Tortishuv jinoyat protsessining aralash shakli elementi sifatida jinoyat ishini yuritishning sud muhokamasi bosqichida o'zini to'liq namoyon qiladi.

Material va metodlar

Tadqiqotda jinoyat protsessida tortishuvga asoslangan ish yurituvni kuchaytirish bo'yicha qonunchilik normalari va huquqshunos olimlarning ilmiy-nazariy qarashlaridan foydalanildi hamda qiyosiy-huquqiy usul, tahlil, sintez, kuzatish, umumlashtirish, induksiya va deduksiya metodlari qo'llandi.

Tadqiqot natijalari

Tortishuv prinsipining to'laqonli ishlatishi, barcha ish holatlari inobatga olinishini ta'minlash maqsadida tomonlarning tengligini ta'minlash juda muhim. Lekin jinoyat-protsessual huquqi nazariyasida shu vaqtga qadar taraflarning tengligini tortishuv prinsipining tarkibiy qismi sifatida tan olish yoki jinoyat protsessining alohida prinsipi sifatida belgilash masalasi bo'yicha yagona to'xtamga kelinmagan. Odil sudlovni fuqarolarning qonun va sud oldida tengligi asosida amalga oshirish prinsipi esa fuqarolarni nazarda tutgan bo'lib, davlat organlari va mansabdor shaxslarni qamrab olmaydi. Bundan tashqari, mazkur prinsip jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e'tiqodi, shaxsiy va ijtimoiy mavqeyidan kelib chiqib, fuqarolarning qonun oldidagi tengligini nazarda tutadi.

Ba'zi protsessualist olimlar tahlil qilinayotgan institutning qonunchilikda aks etishini tabiiy holat sifatida baholashadi. Xususan, X.M. Lukojevga ko'ra, ishni mazmunan

ko'rishga to'sqinlik qiluvchi qonunbuzarlik holatlarini bartaraf etish uchun mazkur institutga zarurat mavjud. Bunda muammo jiddiy kamchiliklarning aniqlanganligida emas, balki ularning ishni ko'rishni boshlashga xalaqit berishida [3]. I.V. Kilina ham dastlabki tergov kamchiliklarini to'g'rilash mexanizmi mavjud bo'lishi kerakligini ta'kidlab, mazkur institutning dastlabki eshituvda aks etmasligi, birinchidan, jabrlanuvchining huquq va qonuniy manfaatlari poymol bo'lishiga, ikkinchidan, sudyaning odil sudlovni amalga oshirishiga to'sqinlik qilishiga olib kelishini aytadi [4]. Shunga o'xshash fikrlarni S.V. Dyadenkinning ilmiy ishlarida [5] ham uchratish mumkin. Lekin birinchi instansiya sudida ish yuritishda sudning o'rnini o'rgangan protsessualist olim A.Y. Piyuk [6] ishni sudda mazmunan ko'rishga to'sqinlik qilishi vaji bilan dastlabki tergovdagi kamchiliklarni bartaraf etish uchun ishni prokurorga qaytarishni nazarda tutuvchi tartibni qattiq qoralab, uning taraflar tengligi va tortishuv prinsipiga zid ekanligini ta'kidlaydi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Sudi tomonidan taqdim etilgan statistik ma'lumotlarga ko'ra, 2021-yilda o'tkazilgan dastlabki eshituvlarning 41,3 foizi jinoyat ishini ayblov xulosasi (dalolatnomasi) yoki tibbiy yo'sindagi majburlov chorasini qo'llash to'g'risidagi qarorni tasdiqlagan prokurorga yuborish to'g'risida kiritilgan iltimosnomalar asosida o'tkazilgan [7]. Bu esa o'tkazilayotgan dastlabki eshituvlarning yarmiga yaqini aynan dastlabki tergov va surishtiruv kamchiliklarini to'g'rilash maqsadida tashkil etilayotganidan darak beradi. Mazkur kamchiliklar o'z vaqtida emas, ishni ko'rish uchun tayyorlash bosqichida kelibgina bartaraf etilmoqda.

Bundan tashqari, jinoyat-protsessual qonunchiligimizda sudlar faoliyatiga oid ayrim tartib-qoidalar, normalar mavjudki, ularning amal qilishini tortishuv prinsipiga muvofiq, deb bo'lmaydi. Xususan, jinoyat ishini sudda ko'rish uchun tayyorlash bosqichida dastlabki tergovning texnik yo'sindagi kamchiliklari-

ni bartaraf etish uchun yoki 405¹²-moddada nazarda tutilgan asoslarga ko'ra, ya'ni ishning sud tomonidan ko'rib chiqilishiga doir to'sqinliklarni bartaraf etish uchun uni taraflarning iltimosnomasiga ko'ra yoki o'z tashabbusi bilan quyidagi hollarda prokurorga yuborishi shular jumlasidan. Mazkur vaziyatda jazoni qandaydir yengillashtirish yoki oqlov hukmi chiqarish o'rniga sudya dastlabki tergov yoki surishtiruv kamchiliklarini bartaraf etishga imkoniyat yaratish orqali prokurorga yordamlashadi, taraflar o'rtasidagi notenglikni yuzaga keltiradi. Ushbu jarayon himoya taraf manfaatlariga zid. Mazkur masala Gruziya [1], Estoniya [2] kabi davlatlar qonunchiligida ijobiy hal etilgan bo'lib, ishni ko'rishga tayyorlash bosqichida aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish uchun prokurorga qaytarish tartibi mavjud emas.

Tadqiqot natijalari tahlili

Bizningcha, sud muhokamasi boshlanishidan oldin aniqlangan tergovdagi kamchiliklarni bartaraf etishning ikki yo'li mavjud. Birinchisi, ularni to'g'rilatish uchun ishni ayblov xulosasi yoki dalolatnomani tasdiqlangan prokurorga yuborish bo'lsa, ikkinchisi bevosita sud muhokamasi jarayonida sud tomonidan hal qilinishi. Afsuski, amaldagi qonunchiligimiz prokuror foydasiga ishlovchi birinchi tartibni ma'qul ko'rgan. Ishda qatnashayotgan himoya taraf manfaatlarini ishonchli himoya qilish uchun, shuningdek, sudning xolisligiga xavf tug'diruvchi mazkur tartib tortishuv prinsipiga va uning muhim tarkibiy qismi bo'lgan taraflar tengligiga muvofiq emas.

Bundan tashqari, JPKning 405¹¹-moddasi mazmuniga ko'ra taraflar jinoyat ishi materialidagi har qanday dalilni, agar ularni nomaqbul dalillar deb hisoblasa, chiqarib tashlash to'g'risida iltimosnoma berishga haqli ekanligi ko'rsatilgan va bunday harakat sudyaning o'z tashabbusiga ko'ra amalga oshirishi mumkin emas. S.N. Esanaliyev qonunning mazkur normasini tahlil qilar ekan, uning isbot qilish jarayonida bir qator qiyinchiliklar tug'dirishini ta'kidlagan. Chunki taraflardan

bunday mazmunda iltimosnomaning kelib tushmasligi nomaqbul dalillarning sud tergovida ko'rib chiqilishiga olib keladi. Vaholanki, uni tayyorlov bosqichida ham bartaraf etish uchun barcha shart-sharoit mavjud. Shuning uchun muallif kodeksga sudning ham nomaqbul dalillarni ishdan chiqarib tashlash bo'yicha o'z tashabbusi bilan dastlabki eshituv o'tkazish vakolatini kiritishni taklif etgan [8]. Ushbu mazmundagi taklifni L.N. Sirovatskaya ham o'z tadqiqot ishida qo'llab-quvvatlagan [9]. Biroq aynan dastlabki eshituv bo'yicha tadqiqot olib borgan T.N. Dolgix amaldagi tartib, ya'ni sudning faqat taraflar iltimosi bo'yicha ish tutishi tortishuv prinsipiga to'liq muvofiq keladi, deydi. [10]. Bizningcha, tadqiqotchi o'z tahlilida sudda ishni yuritish taraflar tortishuviga asoslanishi, sud ayblov yoki himoya tarafga o'tmasdan xolisona qaror qabul qilishi kerakligini inobatga olmagan. Sudning tayyorlov bosqichida o'z tashabbusiga ko'ra biror dalilni nomaqbul deb topishi tortishuvning yuqoridagi talablariga to'g'ri kelmaydi.

So'nggi yillarda tergovda qo'llangan ehtiyot chorasini jinoyat ishini sudda ko'rishga tayyorlash davrida aynan dastlabki eshituv tayinlash orqali hal qilish masalasi muhokamalarga sabab bo'lmoqda. Ayniqsa, qamoqqa olish ehtiyot chorasini qo'llash bo'yicha sud amaliyoti dastlabki eshituvni o'tkazish asoslarini kengaytirish va ushbu ehtiyot chorasini o'zgartirish, qo'llash yoki bekor qilish masalasi aynan dastlabki eshituvda amalga oshirilishi zarurligini ko'rsatmoqda. Amaldagi JPKning 396-moddasida ayblanuvchiga nisbatan tanlangan ehtiyot chorasining asosligi sudga kelib tushgan ish bo'yicha sudya tomonidan aniqlanishi lozim bo'lgan holatlardan biri sifatida ko'rsatilgan. Lekin buning uchun dastlabki eshituv o'tkazish talab etilmaydi va sud tomonidan yakka tartibda hal etiladi. Bu holatni taraflarning qonun va sud oldida tengligiga va tortishuvga asoslangan, adolatli tartib deb bo'lmaydi. Agarda taraflar ishtirokida va sud majlisi jarayonida bu

masala ko'rib chiqiladigan bo'lsa, shaxslarda sudga o'z vajlarini bildirish imkoniyati paydo bo'ladi.

Mazkur masalani tadqiq etgan T.K. Ryabininaga ko'ra, qamoqqa olish ehtiyot chorasini qo'llash masalasini ko'rib chiquvchi dastlabki eshituv sudga taraflar ishtirokida jinoyat ishining, shuningdek, ayblanuvchining bundan keyingi taqdiriga tegishli bo'lgan masalalar, iltimosnomalarni ko'rib hal etish imkoniyatini yaratadi [11]. Bundan tashqari, taraflarda ushbu masalani hal etish va uning natijasiga ta'sir etish, tortishish uchun real imkoniyat paydo bo'ladi. Shuning uchun olim aynan dastlabki tergovda mazkur ehtiyot chorasini qo'llash, o'zgartirish va bekor qilish masalasi ko'rib chiqilishi kerakligini taklif etadi. Y.V. Yurchenko esa bunday holdalarda sud faqat taraflarning iltimosnomalariga asoslanibgina ehtiyot chorasini qo'llashi yoki o'zgartirishga haqli bo'lishi kerakligi, aks holda, sud qaysidir taraf manfaati yuzasidan harakat qilish mumkinligini bildirgan [12]. Ammo hamma ham bu fikrlarga qo'shilavermaydi.

Xususan, A.Y. Popkov ehtiyot chorasini o'zgartirish, bekor qilish, qo'llashni dastlabki eshituvni o'tkazish asosi sifatida belgilashning maqsadga muvofiq emasligini ta'kidlagan [13]. Ammo olim tadqiqotida mazkur xulosasini yetarlicha asoslay olmagan. Bizningcha ham sudning tahlil etilayotgan masalani taraf-

larning vajlarini eshitgan holda sud majlisida ko'rib chiqishi ajrimning har tomonlama asosli bo'lishini ta'minlashga xizmat qiladi.

Ayrim xorijiy davlatlar, xususan, Qozog'iston Respublikasida [14] ehtiyot chorasini tanlash, o'zgartirish va bekor qilish to'g'risidagi iltimosnomalar kelib tushgan taqdirda, bu masala dastlabki eshituvda ko'rib chiqiladi. Qirg'iziston Respublikasi JPKning 279-moddasida taraflar iltimosnomasi asosida ehtiyot choralarini o'zgartirish dastlabki eshituv o'tkazish uchun asos sifatida ko'rsatilgan. Estoniya JPKning 258-moddasida ham aynan tahlil qilinayotgan masala dastlabki eshituv tayinlash orqali ko'rib chiqiladi.

Xulosalar

Yuqoridagilardan kelib chiqib, JPK 405³-moddani quyidagi mazmundagi 6-band bilan to'ldirish taklif etiladi:

Qamoqqa olish va uy qamog'i tarzidagi ehtiyot chorasini qo'llash, o'zgartirish va bekor qilish to'g'risida taraflar tomonidan berilgan iltimosnomalarni ko'rib chiqish.

Shuningdek, jinoyat ishini ayblov dalolatnomasini yoki ayblov xulosasini, tibbiy yo'sindagi majburlov chorasini qo'llash to'g'risidagi qarorni tasdiqlagan prokurorga yuborish uchun asoslarini nazarda tutuvchi 405¹²-moddani qayta ko'rib chiqish va uni qonunchilikdan chiqarish lozim, deb hisoblaymiz.

REFERENCES

1. Criminal Procedure Code of Georgia. Available at: <https://matsne.gov.ge/ru/document/view/90034?publication=130>
2. Criminal Procedure Code of Estonia. Available at: <https://www.juristaitab.ee/sites/default/files/seaduste-tolked/%D0%A3%D0%93%D0%9E%D0%9B%D0%9E%D0%92%D0%9D%D0%9E-%D0%9F%D0%A0%D0%9E%D0%A6%D0%95%D0%A1%D0%A1%D0%A3%D0%90%D0%9B%D0%AC%D0%9D%D0%AB%D0%99%20%D0%9A%D0%9E%D0%94%D0%95%D0%9A%D0%A1%2001.04.2023.pdf>
3. Lukozhev X.M. Uchastiye gosudarstvennogo obvinitelya v predvaritel'nom slushanii po ugolovnomu delu [Participation of the public prosecutor in preliminary hearings in a criminal case]. *Current Problems of Russian Law*, 2010, no. 2. Available at: <https://cyberleninka.ru/article/n/uchastie-gosudarstvennogo-obvinitelya-v-predvaritelnom-slushanii-po-ugolovnomu-delu>

4. Kilina I.V. Povорот k khudshemu pri vozvrashhenii sudami ugolovnogo dela prokuroru (na osnovanii punkta 6 chasti 1 stat'i 237 UPK RF) [A turn for the worse when the courts return a criminal case to the prosecutor (based on paragraph 6 of part 1 of article 237 of the Code of Criminal Procedure of the Russian Federation)]. *Bulletin of Udmurt University, Economics and Law Series*, 2018, no. 5. Available at: <https://cyberleninka.ru/article/n/povorot-k-hudshemu-pri-vozvrashhenii-sudami-ugolovnogo-dela-prokuroru-na-osnovanii-punkta-6-chasti-1-stati-237-upk-rf>
5. Dyadenkin S.V. Vozvrashheniye ugolovnogo dela prokuroru dlya ustraneniya prepyatstviy yego rassmotreniya sudom [Returning the criminal case to the prosecutor to remove obstacles to its consideration by the court]. Abstract of PhD thesis. Chelyabinsk, 2010, p. 5. Available at: https://www.susu.ru/sites/default/files/dissertation/dyadenkin_serгей_vladimirovich.pdf
6. Piyuk A.V. et al. Rol' suda v sobiranii dokazatel'stv po ugolovnomu delu na stadii predvaritel'nogo rassledovaniya i pri rassmotrenii dela v sude pervoy instantsii [The role of the court in collecting evidence in a criminal case at the stage of preliminary investigation and when considering the case in the court of first instance]. 2004. Available at: <https://vital.lib.tsu.ru/vital/access/services/Download/vtls:000191865/SOURCE1>
7. Dastlabki eshituv instituti qanday protsessual jarayon va uning maqsadi nima? [What is the preliminary hearing process and what is its purpose?]. Available at: <https://yuz.uz/news/dastlabki-eshituv-instituti-qanday-protsessual-jarayon-va-uning-maqsadi-nima>
8. Esanaliyev S.N. Jinoyat protsessida dastlabki eshituv institutining o'ziga xos xususiyatlari [Peculiarities of the institution of preliminary hearing in the criminal process]. *Journal of Science, Research and Teaching*, 2023, vol. 2, no. 8, pp. 73–78. Available at: <http://jsrt.innovascience.uz/index.php/jsrt/article/view/275/235>
9. Sirovatskaya L.N. Predvaritel'noye slushaniye v rossiyskom ugolovnom sudoproizvodstve [Preliminary hearing in Russian criminal proceedings]. PhD thesis. Maykop, 2005. Available at: <http://www.dslib.net/kriminal-process/predvaritelnoe-slushanie-v-rossiyskom-ugolovnom-sudoproizvodstve.html>
10. Dolgikh T.N. Institut predvaritel'nogo slushaniya v ugolovnom sudoproizvodstve Rossii [Institute of preliminary hearing in criminal proceedings of Russia]. PhD thesis. Kaliningrad, 2007. Available at: <http://www.dslib.net/kriminal-process/institut-predvaritelnogo-slushaniya-v-ugolovnom-sudoproizvodstve-rossii.html>
11. Ryabinina T.K. Resheniye voprosa o mere presecheniya v vide zaklyucheniya pod strazhu v stadii naznacheniya sudebnogo zasedaniya [Resolving the issue of a preventive measure in the form of detention at the stage of scheduling a court hearing]. *State and Law*, 2012, no. 3, pp. 41–50. Available at: <https://www.elibrary.ru/item.asp?id=17693647>
12. Yurchenko L.V. Nekotoryye voprosy o mere presecheniya v vide zaklyucheniya pod strazhu, razreshayemye sudom na predvaritel'nom slushanii [Some questions about the preventive measure in the form of detention, resolved by the court at the preliminary hearing]. *Bulletin of the South Ural State University, Law Series*, 2007, no. 9 (81). Available at: <https://cyberleninka.ru/article/n/nekotorye-voprosy-o-mere-presecheniya-v-vide-zaklyucheniya-pod-strazhu-razreshayemye-sudom-na-predvaritel'nom-slushanii>
13. Popkov A.Yu. Primeneniye mery presecheniya v vide zaklyucheniya obvinyayemogo pod strazhu pri okonchani predvaritel'nogo rassledovaniya i na stadii podgotovki k sudebnomu zasedaniyu [Application of a preventive measure in the form of taking the accused into custody at the end of the preliminary investigation and at the stage of preparation for the trial]. Abstract of PhD thesis. Tyumen, 2009. Available at: https://static.freereferats.ru/_avtoreferats/01004648505.pdf?ver=3
14. Regulatory Resolution of the Supreme Court of the Republic of Kazakhstan "On some issues of the application by courts of the norms of criminal procedural legislation in a received criminal case" dated 2017, 8 December No. 10. Available at: <https://adilet.zan.kz/rus/docs/P170000010S>
15. Maxmadiyarova X.O'. Sudlovga tegishlilik tushunchasi va uning huquqiy mohiyati [The concept of jurisdiction and its legal essence]. *ORIENSS*, 2022, no. 3. Available at: <https://cyberleninka.ru/article/n/sudlovga-tegishlilik-tushunchasi-va-uning-huquqiy-mohiyati>

YURIDIK FANLAR AXBOROTNOMASI
ВЕСТНИК ЮРИДИЧЕСКИХ НАУК
REVIEW OF LAW SCIENCES

Huquqiy ilmiy-amaliy jurnal

Правовой научно-практический журнал

Legal scientific-practical journal

2023-yil 4-son

VOLUME 7 / ISSUE 4 / 2023

DOI: 10.51788/TSUL.ROLS.2023.7.4.

BOSH MUHARRIR:

Rustambekov Islambek Rustambekovich

Toshkent davlat yuridik universiteti rektori v.v.b., y.f.d.,
professor

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Xodjayev Baxshillo Kamolovich

Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor, y.f.d.,
professor

Mas'ul muharrir: O. Choriyev

Muharrirlar: Y. Yarmolik, F. Muhammadiyeva,
Y. Mahmudov, E. Mustafayev

Musahhih: M. Sharifova

Texnik muharrirlar: U. Sapayev, D. Rajapov

Tahririyat manzili:

100047. Toshkent shahar, Sayilgoh ko'chasi, 35.
Tel.: (0371) 233-66-36 (1169)

Veb-sayt: review.tsul.uz

E-mail: reviewjournal@tsul.uz

Obuna indeksi: 1385.

Jurnal 21.12.2023-yilda tipografiyaga
topshirildi. Qog'oz bichimi: A4.
Shartli 17,67 b.t. Adadi: 100. Buyurtma raqami: 127.
TDYU tipografiyasida chop etildi.